**ASQAD MUXTOR**

# SIZGA AYTAR SO‘ZIM

She’rlar

G‘afur G‘ulom nomidagi
Adabiyot va san’at nashriyoti
Toshkent — 1978

## MEN DUNYOGA KELIB DUNYO ORTTIRDIM

Goho o‘y suraman: nima bo‘larkin
O‘z zimmamga mas’ul ish olib,
Hayotimni butkul to‘kib solsam
Bir parcha qog‘ozga ishonib?

Biroq uni yozib bo‘ladimi?
Xo‘sh, mana—yillarim, ahvolim, zotim...
Ajrata boshlasam «o‘zimniki» deya,
Qaydan qaygacha u, mening hayotim?

Chegarasi bormi o‘y va hislarimning?
Uzoqdagi yulduz qalbga nur solar.
Bilaman, albatta dilshikastaman
Ana u daraxtga bolta ursalar.

Bugun o‘ylarimni bezovta qilar
Uzoq kosmosdagi ming yillik gardlar.
Qachon meni loqayd qoldirgan
Daxlsiz quvonchiar, begona dardlar?

Sochiarimga oq tushirmadimi,
Qalbga solmadimi jarohat
Zaminda tikilgan har bir qora bayroq,
Mahallaga kelgan har bir qora xat?

Yelkamda sezaman Brunolarning
Gulxan tafti kabi o‘t nafasini.
O‘ylarimda suratlantiraman
Kelgusi asrlar qiyofasini.

Qaydan qaygacha u, mening hayotim?—
O‘ylamabman hatto eng og‘ir damlar.
Qayg‘u va quvonchim ko‘p bo‘ldi, ammo
Sizsiz ular yo‘qdir menga, odamlar.

Siz bilandirmanki, bari o‘zimniki,
Chegarasi yo‘qdir o‘y-hislarimning.
Siz bilandirmanki, yillar va dillar,
Quvonchlarim ming-ming, tashvishlarim — ming.

Men dunyoga kelib dunyo orttirdim,
Hammasini qoldirib ketarman.
Qalbni esa so‘nggi hujayrasigacha
Lovillatib yondirib ketarman.

## FABRIKAMNING YO‘LLARI

*Onam xotirasiga*

Sizni o‘ylaganimda
G‘amginman bir oz,
Fabrikamning yo‘llari,
Siz menga meros.

Mashaqqatli baxtimni
Sizdan izladim.
Fabrikam xiyoboni —
Yoshlik izlarim.

Asfalt emas edingiz,
Qayroqi toshdan.
Uzoq-yaqin yo‘llarim
Sizga tutashgan.

O‘ksik bolaligimni
Qo‘msayman ba’zan,
Siz umrimning ilk satri,
Taqdiri azal.

Men qayrilib boqaman
Adashsam agar.
Siz nurlanib yotasiz
Ufqqa qadar.
Fabrikamning yo‘llari.

## KO‘NGIL

Nimadir yetmaydi insonga hamisha,
Ozga qoniqmaydi, ko‘pga intilar.
Jasorati cheksiz, doimo tashna,

Yerga sig‘maganday, ko‘kka intilar.

Shu inson bolasi jindak ranjisa-chi,
Yo so‘zda yetmasa nafis malohat,
Biron nohaqlikdan, biron sovuqlikdan
Yuragiga tushsa jarohat.

Biron sabab bilan jonidan to‘yib,
Umidsizlik solganda soya,
Bunday paytida ko‘p kerak emas,
Bir shirin so‘z unga kifoya.

## UMR NEGA SHIRIN

Xavotirli, shoshilinch, shirin ilk bo‘sa,
Borlig‘imni titratgan lahza!
Keyin undayini topolmadim, ammo
Hanuz yuragimda yashar shu larza.

Qayta ko‘rolmadim yetim hayotimda,
Sira unutmadim bir onni lekin:
Ustozimning qattiq ko‘zlarida
Ota mehrin ko‘rib yig‘ladim sekin...

Bir qushcha churq etib, olam uyg‘onganda
Shabnam qatrasida ko‘rdim yuzingni.
So‘ng bir umr kutdim, qaytib kelmadi,
Bir umr izladim shu zumni.

Shunday noyob, oltin lahzalarning
Qadrin bilmas ekan odamlar.
O‘tib ketar ekan, takrorlanmas ekan
Umrda yagona bebaho damlar.

O‘tib ketmasa-chi? Birdan to‘xtab bari
Muzlab qotib qolsa nima bo‘lardi?
Yo‘g‘-e, kimga kerak muzlab qolgan hislar!
Orzuyu pushaymon — bari o‘lardi...

Asli shundayligi juda oqilona,
Balki hayot siri shunda yashirin.
Balki takrorlanmas bo‘lgani uchun
Umr ham shunaqa bebaho, shirin.

## ONA MEHRI KABI...

Saraton lovillab quyosh ko‘rasnda
Yonar edi kunlar—kecha emasmi?
Yana kirib keldi qalbiarimizga
Oltin fasl, oq oltin fasli.

Sarim yellar bilan,
Kumush tog‘lar bilan,
Misli bo‘yga yetgan betoqat suluv,
Yomq, hayajonli yuraklarimizga
Ilk muhabbat kabi kirib keldi u.

G‘alati tuyg‘u bu:
ko‘hna, shirin, yangi...
Ilk bor ko‘rgandayman kuzm, dalam
Hamma narsa sendan yosh ko‘rinar,—
YO shunday shirinmi shuming alami?

Boladikda qo‘l uzatsam birdan
Quyoshdek ko‘rimb ochilgan chanoq
Butun sofligi-la qalbga urilardi
Ona mehri kabi illq va yumshoq...

Hozir keng dalalar qaynab yotsa ham,
Tongdan agregatlar solsa ham g‘uluv,
Shu katta hayotning o‘tli yuragida
Sira eskimabdi shu sokm tuyg‘u.

Ha, shovqinli motor qudratidan,
Eng nozik tuyg‘ular, ezgu armonlar,
Harir tolalardan, og‘ir tonnalardan
Uyiladi bizming xirmonlar.

Vatan ham, biz kutgan baxtli kun kelib,
Tog‘-tog‘ paxtamizm qabul etgan chog‘
Kattakon qalbida bir his sezsa kerak:
Ona mehri kabi iliq va yumshoq...

## MUKOFOT

Mukofotga «Volga» oldi
Salim bobo, brigadir.
Qaytar ekan, o‘tmishim
Eslab qoldi negadir.

Omoch sudrab, qo‘sh haydardi,
Azob edi u hayot.
Qarimasdi o‘sha mahal

Qani bo‘lsa bitta ot!

...Yurgan sari yuragida
Xotiralar ortardi.
Og‘ir o‘yin yuz ot kuchli
«Volga» zo‘rg‘a tortardi...

## TONGLAR IZSIZ O‘TDI

Yashadi u, misli bir hujayrali,
Jo‘n yashadi. Sokin va oson.
Diliga cho‘g‘ solmas na o‘yin, na ish.
Visol orziqtirmas, o‘rtamas hijron.

U yeb-ichar, lazzat topar edi.
Rohat topar edi uyqudan.
Quvonchdan yuragi yorilmadi uning,
Sochi oqarmadi Qo‘rquvdan.

Har narsani eplay olar edi,
Qilib o‘zi uchun yoqimli, o‘ng‘ay.
Yonib-kuyib yurmay uylanib ham oldi,
Pijamasi yumshoq, hovlisi kungay.

Yuragiga uning iz solmadi qayg‘u,
Izsiz o‘tib ketdi tonglar, bahorlar.
Hayratga solmadi inson jasorati,
Shunchaki suv edi soylar, anhorlar...

Uni qiynamasdi xayol, muammo,
Bir nafas lovillab dili yonmadi.
Asta shimib yotdi kunlar shirasini,
Hayot lazzatiga lekin qonmadi.

Birdan...
o‘lim keldi ro‘parasiga.
O‘tmay qoldi tomoqdan yovg‘on.
—Tuzalib ketasiz...—deb tanishlari
Tasalli berardi.
(Yana bir yolg‘on!)

Hech biri o‘limning buyuk mohiyatin
Etgisi kelmasdi ro‘y-rost tasavvur.
Nahotki yolg‘onsiz o‘la olmasa,
Unga yetmasmidi bir yolg‘on umr?!

U azobda qoldi, dahshatga tushdi:

«O‘lim nima o‘zi, odamzod?!
Nahotki u yog‘i tubsiz zulmat bo‘lsa,
Nahotki, nahot...»

Hoy, o‘lim nima, deb bosh qotirgandan,
Hayot nima, deya qilsayding tashvish...
Hayot axir nechog‘ sayoz, mayda bo‘lsa,
O‘liming shu qadar sovuq va mudhish..

## OLIY BUTUNLIK

O, ona tabiat!
Sen bilan yak sonman,
Sen mening erkimsan, mening qafasim.
Jonim shirinligi, tirikligim sendan,
Sof havodan olgan nafasim.

Tug‘ishganlik hissi yo‘l qo‘ymaydimi,—
Odatmas quyoshga aytmoq tashakkur.
Har tong qarshisida tiz cho‘ksam arzirdi,
Yorug‘ dunyom mening, ko‘zimdagi nur.

Sezaman ekinlar tanasidagi
Sharbat bo‘lib oqqan rizqimni.
Naykamalak, gullar—mening hislarim,
Bahor yangilaydi hayot ishqimni.

Yer issiq, yer yumshoq, o‘zim ham yerdan,
U ko‘rinmas menga bir marrasimon.
Yo‘q, men abadiyman.
Menga o‘lim yo‘q.
Tirik tabiatning bir zarrasiman.

O, hayotning oliy butunligi!
Insonga ufqlarni kengroq och,
Jamiki dardlarga malham o‘zingsan,
Azobii o‘ylarga yog‘du soch.
Azobli o‘ylarga yog‘du soch...

## BILSA EDIM ShUNI

Oramizda zilol bir ko‘l bor,
Kuzning tiniq zangor ko‘zicha.
Fasllarday quvlashamizu,
Qish o‘zicha ekan, bahor o‘zicha.
Bir-birimizga yeta olmaymiz,

Bir-birimizdan keta olmaymiz,

Tong bargida salqin bir tomchi,
Keksa quyosh uni yutadi.
Shu tomchi ertaga yana tug‘ilib,
Mo‘ldirab quyoshni kutadi.

U bo‘lmasa go‘yo quyosh yonmasmish.
Chin ehtiros sira qonmasmish.
Bir-birimizni qo‘ya olmaymiz.
Bir-birimizdan to‘ya olmaymiz.

Kapalakmi, tosh haykalmi mening
O‘t ichida o‘tgan uch tunim?
O‘t ichida o‘pgan yulduzimda
Qolsa edi tirik uchqunim!

Qolsa agar tirik uchqunim,
Xotirangda yashab qolardim.
Bilsa edim shuni, mangulikni ham
Mana shu oqshomday kutib olardim.

**QIYNALISh**

Kitobiarim varaq-varaq,
Siz qaylarda sarsari?
Umrim edi yashil daraxt,
Sizlar uning barglari.

Men siz bilan nafas oldim,
Dard bilan yaraldingiz.
Har gal o‘ksib qoldi qalbim,
Yellar-la taraldingiz.

Oppoq bulut suzib o‘tdi,
Yana tomchi tommadi...
Nahot bunga ham ko‘nikdim,
Dardli o‘ylar qolmadi?

Mayli, agar to‘ymasa
Dilimning qaqroqlari,
Dovul tursin, to‘kilsin
Umrimning yaproqlari...

**ASLIGA TO‘G‘RI**

(Hissiyot to‘g‘risida ratsionalistik she’r)

Tarmashib oladi ba’zan o‘ylarning
Yopishqoq, bekorchi, mash’umi,
Shunda ta’kidlaymiz biz o‘zimizga:
«O‘ylama, o‘ylama, o‘ylama shumi!»

Odam hamon o‘ylar, o‘yni quvolmay,
O‘zi biladiki, yo‘qdir keragi,
Ajab, hayot bilan singishib ketmoqqa
Aqlu idrok xalal beradi.

Ba’zilar uyquda oydin kechalar
Tomning bo‘g‘otiga chiqib yuradi.
Shu mahal bir zumga uyg‘onsa bormi —
Yiqilar, yorilar balki yuragi.
Ajab, hayot bilan bir butun bo‘lmoqqa
Aqlu idrok xalal beradi.

Mast qilganda bo‘sa lazzati,
Dilni favqulodda quvonch yayratsa,
Yoki yo‘ida bir zum to‘xtab tursak
Tong husniga qolib hayratda,
Sog‘inganda, visol damlarida
Bebosh hislar bilan yurak orziqsa,—
Bunday mahallarda birdan kelib qolgan
Har qanday aqlli fikr ortiqcha.

Hayot mohiyati to‘g‘risida bizga
Savollar beradi aqlimiz yakkash.
Hislar esa yashash kerak deydi,
Javobi ham shudir: yashash va yashash.

Fojiani tan olmaydi hislar,
Quyosh ko‘lankani ko‘rmaydi abad,
Xuddi shunday, hayot ham o‘zining
Mahkum ekanini bilmaydi albat.

«Chin aqldan» emas, «chin ko‘ngildan» deymiz.
Faqat yurak bilan sevamiz,
Va muhabbat degan o‘sha ko‘hna so‘zga
Hamon sig‘inamiz va bosh egamiz.

Men dunyoda ming jild kitob o‘qib,
Topmadim bir ko‘ngil risolasini.
Farzandlar maqsadsiz, rejasiz,
Qasamyodsiz sevar o‘z onasini.

Hissiyot hayotning asliga to‘g‘ri,
Idrrk goho yaqin, goho yiroqdir.
Hayotga muhabbat va yashashning o‘zi
Hayot ma’nosidan ulug‘roqdir.

**ULAR ULGURDILAR**

Ne-ne savob topib, ne gunoh etdi
To‘qsomida tetik, hayot bo‘lganlar.
Hech narsaga ulgurolmay ketdi
Yigirma yoshida halok bo‘lganlar.

Yo‘q, yo‘q, ulgurdilar yosh bo‘lsalar ham,
Inson qodir bo‘lgan eng buyuk ishga:
Ular ulgurdilar eng muqaddas dam
O‘zni Onayurtga qurbon qillshga.

**ONANI KOYIMAYDILAR**

Oramizda uzoq-uzoq yo‘llar;
Senga intilaman bog‘lar gullasa,
Ammo yo‘llar... yo‘llar mayli edi,
Oradagi yillar bo‘lmasa.

Seni o‘ylaganda o‘sha yillar go‘yo
Sekinlatar qalbim zarbini.
Ular meni behudaga chorlar,
Yaradek og‘riydi har biri.

Lekin men ularni koyimam, chunki
Taqdir bo‘lib qolgan zamona.
Orqamdan kuzatar meni, onamdek,
U meni tuqqandir, chindan ham Ona.

**JIMLIK SURONI**

Yaylov oqshomining epkini ildam,
Yulg‘un keragalar asta g‘irchillar,
Kun bo‘yi egardan tushmay, tolsa ham,
Tun yana bezovta yosh yilqichilar.

Olonda oq, qizil kiygan qiz-juvon
Shov-shov shopiradi biya sutini.
Oqshom tinch, bosilmas dildagi suron,
Nelarni eslatar tezak tutuni?

Vaqirlab go‘sht qaynar qora qozonda,
O‘tov atrofida itlar sanqigan.
Qizlar shivirlagan o‘sha olonda
Yangi qimiz xidi anqigan...

Oqshom ko‘rinishda osuda, so‘lim,
Lekin u bir olam o‘y, sir saqlaydi.
Ingichka kishnasa uzoqda qulun,
Biyaning ko‘zida yulduz chaqnaydi..

* * *

Orzularning manguligin o‘ylab,
Yuragimga g‘uluv tushadi.
Kun bag‘ridan chiqib bizning ekipajlar,
Zim-ziyo koinot sari uchadi.

Yerda esa hamon qadimgicha
Ertaklar kuylaydi g‘irotlarim.
Qorong‘i burchakdan chiqib parvona
Shamda kuydiradi qanotlarini...

**YaYLOV TONGI**

Kel, jonginam, birpas o‘tiraylik
Jimlikning sehrida mastona.
Bu tun go‘yo faqat ikkimizniki,
Bu tun mangulikka go‘yo ostona.

Qirda suruvlarning dupuri tingan,
Qo‘ychivonlar yoqqan gulxan o‘chibdi.
Saksovul cho‘g‘ining uchqunlari esa
Yulduz bo‘lib ko‘kka ko‘chibdi.

Yaylov tuni muncha ulug‘vor,
Muncha sokin bu dala-tuzlar!
Bir seskansang go‘yo shu zumda
Duv to‘kilar yerga yulduzlar.

Tizzamga boshing qo‘y.
Oyning kokillari
Ufqlarga tushdi taralib.
Ko‘zlaring sehrida
mening taqdirim,

Sochiaringga qolgay o‘ralib.
Yaylov dengizini kechar oppoq tong,
Nega qalbing jimdak entikdi?

Ana, oq nur tushdi:
maysada kimdir
Ro‘molchasim unutib ketibdi...
Qadimiy hislarni chorlab uyg‘otar
Uzoqda kishnagan toy-do‘nan.
Sog‘imshiar, nozlar takrorlanar,
Yozlar takrorlanmas, jonginam.

Kel, jimgma birpas o‘ltiraylik,
Qo‘zlaringga yana tong husnidan ol.
Tonglar...
Tonglar hali oldimizda ko‘p,
Lekin munaqasi bo‘lmas e\timol.

**UMID**

Kuz ertasi. Namgarchilik,
Hazon biqsib, tutun taralar.
Oyoq osti—«chilip-chllip»,
Zirqiraydi eski yaralar...

Bor umringni o‘ylaysan qayta,
Nimadir yurakni ezady».
Imoni sustroqlar mana shunday payida
Yashashdan bezadi.

Ammo sen boq hayot dengiziga:
U o‘jarlik bilan qilar ishim.
Razm solsang, har dam o‘ziga
Ming-mmg iplar bilan bog‘laydi semi.

Fasllar almashar,
dolg‘alanar havo,
Qarg‘alar tovushi—qishning daragi.
Trotuarda
bukchaygan bir bobo
Yosh ko‘chat ko‘tarib o‘tib boradi.

Niholni avaylab mahkam ushiagan
Tomiri bo‘rtib chiqqan titroq qo‘llari
Xayolida balki
olamm xushlagan
Bahor,

bodroq-bodroq o‘rik gullari.

Ko‘m-ko‘k shovullashi balki qulog‘ida,
Ko‘ksi bilan sezar soya-salqinin.
Sovutgisi kelar ko‘ngil bulog‘ida
Saratonning lov-lov yolqinin.

Boboning umrida ko‘p bo‘lgandir baxt,
Lekin baxt o‘tkinchi,
Umid — abadiy.
Keksa qo‘llardagi mana shu daraxt—
Ertaga kimningdir tolei kabi.

Boboning ko‘zida umid yaltirar,
Ko‘chatni ko‘tarib shoshib boradi.
Mahalla ustida hamon qaltirar
Bebosh bolalarning qog‘oz varragi.

**ADOLAT**

(Yangi yilda chollar gurungi)

— Mana, umrimizdan yana bir yil ketdi.
Bandasi bilmay ham qoladi.
— Shu kunga yetkizdi, shukr qilaylik,
Egam o‘zi bergan, o‘zi oladi.

— Olib, nima, yeb ketarmidi?
Fahming yetmadimi yo shunga:
U umringdan olgan o‘sha bir yilni
To‘kmay-sochmay qo‘shar yoshingga.

**QALBIM NOZIKLAShDI**

Yangi yilning yaqin oppoq tuni
Bolalar orziqib tunni kutadi.
O‘tgan yili uchgan nafis qor uchquni
Yangi yil sarhadin buzib o‘tadi.

Bolalar hovliqib yangi yil kutadi,
Menga esa yil kuzatish — g‘am:
Qilt etib uzilgan bitta yaproq ham
Naq qalbimga tegib o‘tadi...

* * *

Hayot shunday mo‘‘jizaki,
Qancha jabrin tortsang oz.
O‘lim esa uning uchun
Arzimas bojdir, xolos.

## EKSKAVATORChI

Ekskavatorchi tuproq ag‘daradi,
Qum daryoday oqar po‘lat kovshidan.
Uning rotorlari shunday dag‘dag‘ali,
Sahro ufqlari titrar tovushidan.

Tortadi metindek qatlamlar tagi,
Ko‘zlardan o‘t chaqnar chag‘irligidan.
Tomirlari bo‘rtar uzoq tsexlardagi
Oltin misqollarning og‘irligidan.

Yer tugamas, hamon qazir oshnam.
O‘n yillardan beri shunday kovlaydi.
Go‘yo ona-Yerdan ajdodlarning ham
Haqqi-huquqini dovlaydi.

Oltin unga, chog‘i, muhimmas uncha,
Men tushungandayman goh niyatiga:
Kovlar mohiyatga toki yetguncha...
Inson hayotining mohiyatiga.

## INSON

Sen kashfiyot yolqini, otash,
Asriy zulmatlarda bir yorug‘ nuqta.
Barcha mavjudotlar qalbingga tutash.
Bir oddiy giyohning oldida to‘xta.

Ariq shildirashi, barglar shiviri
Senga jon ozug‘i, ruhingga dardkash.
Gullar bilan so‘rash, hidlab har birin,
Kapalaklar bilan suhbatlash.

Javob bermasalar gapingga, mayli
Sovuq yulduzlarga tikilganda goh,
Bilginki, qalb qo‘ri jonlilar tufayli,
Jonlilar jonliga doim xayrixoh.

* * *

Ko‘p suzdim, bilaman dengiz shukuhin.
G‘oyibdan tinglayman teran sasini.
Ters turib sezaman ulug‘vor ruhin,
Ko‘raman ko‘rkini, jozibasini.

Men seni o‘yladim bugun sohilda,
Hech kimga tenglamam, tengsizsan.
Ketgansan. Ammo sen doim yonimda,
Dengizga o‘xshaysan. Dengizsan.

* * *

Ufqlardan qalqib ko‘hna Amur
Ohista, cho‘yanday eshilib oqar.
Narigi sohilda hali quyosh yonur,
Keksa nanay unga entikib boqar.

—Biz ozmiz. Tiriklar—ko‘zing nuriday,
Ulganlarni doim yodda tutamiz.
Tug‘ilmaganlar ham dilimg to‘rida,
Taraddudlar bilan kutamiz...—

Men shunday o‘yladim: «Bunday elatni
«Kichik» deya atash kerakmi?»

* * *

Tegirmon toshining o‘qida orom.
Orom girdibodning qoq o‘rtasida.
Joziba tegrasi—sa’yi badavom,
Shunday bir holat bor ishq o‘lkasida.

Ishq—orom izlash, mushkul va shirin,
Charxi girdon, xullasi kalom.
Sening ko‘zlaringda orom yashirin,
Atrofingdagilar shundan beorom.

**INSON ERTAGI**

O‘tib ketdi. O‘tib ketdi lahza.
O‘tib ketdi, men qarab qoldim.
Na hayajon menda, na olamda larza,
Nega achchiq faryod chekmaydi qalbim?

O‘tib borar zumlar, o‘tib borar,
Biri—buyuk, qay biri oddiy.
Biri uchar mangulikka qarab,
Biri vazmin va qariyb moddiy.

O‘tib borar, yelib borar tikka,
Barini barobar yeldirar bir kuch.
Biri to‘ppa-to‘g‘ri uchar yo‘qlikka,
Shuursiz va ayanch, salmoqsiz va puch.

Puchmi-to‘qmi — har kim baholasin,
Chunki bu aslida inson ertagi.
Uchayotgan planetada odam bolasi
Yo unday, yo bunday o‘tib ketadi.

**TUSh**

Men bir tush ko‘ribman.
Ajab zamonlardan.
Jahl ustida o‘sha so‘z aytilmaganmish.
Hali ko‘ngil holi pushaymonlardan,
Ahdu va’dalardan qaytilmaganmish.

Visol zoriqtirar, zardalar shlrin,
Yolg‘izlik alami hali notanish.
Bilmay qovushuvning mangulik sirin,
Dillar bir-biriga quvonar emish.

Ko‘zlarning ko‘zgudek begunohligi
Tirik emish, tirik va abad.
Mening insonligim, sening ilohliging
Va bizni teng etgan o‘sha muhabbat.

Oldinda uzoq yo‘l, uzoq umrning
Achchiq-chuchuklari xayolda ham yo‘q.
Hali issiq emish yonimda o‘rning,
Hayot mo‘‘jizalar sehriga to‘liq.

Bilmasmishman yaqinligin jo‘ngina turmush,
Butun bir umrni yamlab yutgan on,
Va so‘ngra... vaqtning, xuddi yengsimon,
Astarin ag‘dargan bu g‘alati tush...

**TUN UY SURAR**

Bizning bog‘da oqshom paytlari,
Iig‘ib olganida kun shu’lasini,
O‘tlar orasida yashil chigirtka
Boshiaydi tinimsiz ashulasini.

Bu kichkina jonning so‘zsiz qo‘shig‘in
Asli fidoyilik desa bo‘ladi.
«Hayot bor...»—tun bo‘yi o‘jar bir ta’kid
Katta sukunatning jonli bo‘lagi.

Shu chirillash borki, nazarimda,
Tun o‘y surar, tabiat tugal.
U bo‘lmasa so‘qir kechalari
Ruhimiz huvillab qolardi har gal.

Qashshoqroq bo‘lardi tun manzarasi,
Bunday sehriy ta’sir etmasdi
Ham umumjahoniy garmoniyada
Bir azaliy ohang yetmasdi...

* * *

Bizning bog‘da chiqsang oqshom sayriga,
Yo oralab yursang sen ishkomlarni,
Cho‘chitmagil sevishganlarni,
Osmonlarda sezsin o‘zini, mayliga.

Bu lahzalar bir umrga tatir,
Bu lahzalar sinar yoshlik sabrini.
Biz shularni ko‘rib bilamiz axir
Tungi yulduzlarning qadrini.

## OLMA TO‘KILDI

Meva to‘kiladi. Bog‘lar dimiqqan.
Tunlari «top» etib olma tushadi.
Tonggi o‘ylarimday tinib-tinıqqan
Og‘ir sukunatning bag‘rin teshadi.

Bo‘g‘iq, uzuq tovush. Unda nimadir
So‘zlaydi hikmatdan, qismatdan.
Kimningdir uyqusin buzar, kimgadir
Zaminning joziba kuchin eslatgan...

Men sezaman unda sehriy alomat,
Shoshqin, ehtiyotkor tovush... Sen mudrab

Kutasan... Odamning hayoti uzra
Nimadir turadi shunday omonat.

Qachondir sarflangan kuch umi avval
Asta kimirlatar... Uzar bandidan.
«Top-top» degan sari yo'qotganday har gal,
Ona ayriladi bir farzandidan.

Uzuq, bo'g'iq tovush... Unda nimadir bor
Qadimiy dunyodan, qismatdan.
Yetilish, paymona, muddatdan...
Olma to'kiladi. Uylar beqaror.

Xay, to'kilish uchun har zot pishadi.
Olmadek sehriy charx aylanar.
Fasllar davrasi yana tugallanar...
Tonglari «top» etib olma tushadi.

* * *

*Azizim Aleksandr Udalovga*

Bog'da, uzoqlardan keltirib, do'stim
Bir qayin o'tqazib qo'ygandi.
Shu mehmon o'z tenggi chinor yonida
Erta bahordayoq asta uyg'ondi.

Uyg'ondi-yu, hamon ko'm-ko'k uyqusini,
Mayin uyqusini quvlayotganday.
Es-es xotirlaydi o'rmonlarni go'yo,
Tushda ko'rdimmi, deb o'ylayotganday.

* * *

Bizning bog'da har tong asta yangrar
Muhabbat qismati to'g'risida kuy.
Horg'in ko'zlarimni yuvar ohanglar,
Nazarimda, kuychi jindek xudojo'y.

Kuy g'amgin bo'lsa ham, bechora netsin,
Uyqusiz tunlarim yolg'iz emasman,
Rahmatdan o'zgani unga demasman,
Shuncha orziqtirgan vasliga yetsin.

* * *

Bizning bog‘da birinchi qor yog‘di.
Uyga yomonliklar kelmaydi sira.
Sen mening qorimsan, birinchi qorim,
Go‘yo butun olam senday bokira.

Butun olam shunday oppoq tinlik,
Bahor gullarining hidi keladi.
Bahor gullaridek, qor tagida mudrar
Odamlarning ezgu tilagi.

* * *

Bizning bog‘da tun cho‘kkan mahal
Qalbni uvishtirar ukki nolasi.
Birov der, u chorlar badbaxt qismatini,
Birov der, qarg‘armish o‘gay bolasin.

Musibatday sovuq, uzoq, goh yaqin,
Balki gado folbin, balki jinnidir.
U o‘zi begona ko‘zdan yashirin,
Lekin chaqiradi hamon kimnidir.

Betinim sannaydi, nazarimda tunni
Qora bo‘laklarga bo‘lib chiqadi.
Nimaga o‘xshatsang, nima desang ham
Bir g‘amgin afsona bo‘lib chiqadi.

Oqlolmagan emish ona sutini,
Oq sut tilar emish, degan gap...
Bu ham—ertak. Shunday so‘lim tunda
Ertak ro‘parangdan chiqsa ne ajab!

Hayot shu ekan-da: yog‘du va zulmat,
Qishu yoz, o‘ngu tush, tirik va o‘lik...
Shusiz bo‘lmas ekan tugallik sira,
Hatto qush na’masi: go‘zal va xunuk.

* * *

Bizning bog‘da shlfobaxsh o‘t bor,
Xalq uning otini bargizub demish.
Chunki o‘sha o‘tni tunlari bedor
Yulduzlar nur bilan sug‘orar emish.

Siz bilasiz mening yonishlarim,

Satrlarga ko‘chgan qalb cho‘g‘inni,
O, yulduzlar, tungi tanishiarim,
Nur bilan sug‘oring shu qo‘shig‘imni.

Ehtimol, shunda u biron kimsaning
Yurak yarasiga malham bo‘lardi.
Guldek ochilardi zamin . insonning
Atigi bir zumga arisa dardi.

* * *

*Qaynim Ahmad halok bo ‘lgan qishloqda*

Shabboda ovulni oralab o‘tdi,
So‘nggi rutubatni bog‘lardan quvlar,
Yana gurkiratar qalbdagi o‘tni.
Oq yo‘l sizga, ey toshqin suvlar!

Ertalabki tuman vaznsiz, harir,
Undan nari—qirlar, sening qirlaring.
Yoshliging tentirar qirlardan nari,
Sening yashamagan esiz yillaring.

Unda toshlar yonib kul bo‘lgandi.
Yana boshoq undi, salmoqli, yirik.
Bahor bu yerlarga yana o‘rgandi,
Sen ardoqlab qolgan mo‘‘jiza tirik.

O‘sha yoqdan kelar yoshlik daldasi,
Dardli xotirani dildan taratgan.
O‘sha yoqdan kelar bahor shabbodasi,
Hislar, kuylar oqar o‘sha tarafdan.

* * *

Naykamalak, sizcha, spektrlar xolos,
Vibratsiya, deysiz, qushlar na’masin.
She’r esa, mana qalam bilan qog‘oz,
Programmalashgan harflar yig‘masi.

Hayot-chi, oqsilmi, kislotami, nima?
Yurak—nasos, hllol—oddiy kul...
Gilosday lab emas, hujayra, to‘qima,
Gulni nima deysiz, gul-chi, gul?

Balki formuladan iboratdir dunyo?

Nima deysiz tongmi, tumanmi?
Unday bo'lsa, men-chi, men ham yo
Modda almashlnish ob'ektimanmi?

—Yo'q!—degim keladi, qisiladi yurak,
Menga sir qoldiring, haqqim dovlayman
Menga go'zal, sehriy dunyo kerak,
Sirru mo''jizasiz yashay olmayman!

**DARBADAR**

Yulduz bo'sasiga Yer ko'ksi ochiq,
Abadiy qovushgan dengiz-la osmon,
Hatto chaqmoq zulmatlarga oshiq:
Faqat shamol yolg'iz, beoshiyon.

Faqat shamol yolg'iz, yerda darbadar,
Faqat shamol hamon juftin izlaydi.
Daralarda izg'ib, tunga naqadar
Ozor bergamni o'zi sezmaydi.

Kezadi tog'u tosh, changalzorlarni,
Kimmdir chaqirar hamon telbaday.
Darg'azab yulqinlb, goh zorlamb
Goh norday quturib, goh yelvagay,

Bog'da, sohillarda, qirlardan pastda
Suluvlarnmg sochin siypab taraydi.
O'tli siynalardan sirg'alib asta,
Xumor ko'zlariga to'yib qaraydi.

Yana ketadi u, kimmdir istab
Va qo'rqib qalblarning yonishlaridan.
Begona yotoqlar hidini iskab,
Mo'ralar deraza tirqishlaridan.

U maskan topolmas maskan tark etib,
Ruhi hech qaerga sig'maydi.
Keyin, Majnun kabl, sahrolarga ketib,
Uzoq-uzoq yolg'iz yig'laydi.

U minglarni chorlab yalingan emnsh,
Ammo qalbida yo'q hech kimga vafo.
Shundan, u topilmas ishqnmg bedavo
Mangulik dardiga chalmgan emish.

**UChISh**

Uzoq zamonlarda
Irg‘ay tol egib,
Yoy yasadi odam,
O‘q otdi.
Shunda ilk bor
Uchish dardi tegib,
Oromini butkul
Yo‘qotdi.

Uni chaqirardi
O‘zga olamlar.
Keyin, Kalugada
Tunlar beuyqu,
Planetani uyg‘otmasdan,
Asta qadamlab,
Yo‘lning yarmini
Bosib o‘tdi u.

O‘ylarida unib
Idrok atomi,
Fazo birdan
Go‘yo kichraydi.
U uchdi.
Olamni tutdi shovqini.
Ufq
xuddi yoydek
Hamon titraydi...

**O‘TAR-KYeTAR...**

«In ham meguzarad!»
Donishmandga balli.
Demak, hech narsadan bo‘lmaylik xafa.
Qanday allalovchi, oson tasalli,
Qanday yupatuvchi, o‘ng‘ay falsafa!

In ham meguzarad...
orom, orom quching.
Hayajondan saqlang yurakni.
Lekin hayajonning o‘tishi uchun
Axir jindek fursat kerakmi?

In ham meguzarad.
Tugib oling dilga,
Chindan, hamma narsa, so‘zsiz, o‘tadi.

Lekin hamma narsa o‘zi bilan birga
Umrning bir qismin olib ketadi.

Umr? In ham meguzarad, balli.
Bundan ham hech bo‘lmanglar xafa.
Qanday allalovchi, oson tasalli,
Qanday yupatuvchi, o‘ng‘ay falsafa!

Axir, «o‘tar-ketar», bu—vaqt haqida,
Bir nima o‘tguncha fursat kutamiz.
Umrguzaronlik ko‘hna aqida.
Aslida, vaqt o‘tmas, bizlar o‘tamiz...

Tezroq yetsaydim, deb, yillar yo‘qotamiz,
Go‘yo vaqt tez o‘tsa yutamiz shuncha.
Ranjitamiz, so‘ngra yupatamiz,
Ammo fursat kerak dil yozilguncha.

Alam bosilguncha fursat kerak, fursat,
Og‘riq tuzalguncha fursat kutamiz.
Fursat kerak baxtimizni kutsak;
Orzu ushalguncha fursat kutamiz.

Mevani o‘ylaymiz dillarda ming-ming
Xushbo‘y kapalaklar qurganda maskan.
Biz visol kutamiz goh yolg‘izlikning
Dardchil lazzatini qadrlamasdan.

Kunning chala-chatti quroqlarini
Iig‘ib, ertagacha uchmoqqa shaymiz.
Doimo kalendar yaproqlarining
Hazonrezgisida yashaymiz.

Saxovatdanmikin «o‘tar-ketar» deb,
Umrni bemalol bunday ulashsak?
Oldimda mangulik bizni kutardek,
Hozirgi har lahza uchun kurashsak.

## YeR

Yerga men o‘zimni jondosh sezaman,
«Tuproqdan bo‘lgan»im tufayli emas.
Shunchaki, men uchun hamma narsadan
Insonga marhamat hissi—muqaddas.

Yerning tashvishlari bitmas hech mahal,
Halovat istasak biz undan topdik.

Bir kiftin silkisa—gul, meva, asal,
Bir kiftin silkisa—qor, bo‘ron, soflik.

Istardim, inson ham Yerga faqat don,
Muruvvat, saxovat urug‘in eksa.
Hech kim o‘ksimasa, hammaga yetsa
Ko‘k gumbaz ostida to‘kin dasturxon.

Nazarimda, men ham yerni dehqonday
Haydab, har qadamda ma’no izladim.
Ehtimol mendan so‘ng bir tomchi qonday
Yonar marzalarda qolgan izlarim.

Yerga men o‘zimni qondosh sezaman;
Tuproqdan bo‘lgan»im tufayli emas.
Shunchaki, men uchun hamma narsadan
Insonga marhamat hissi—muqaddas.

Hatto, to‘g‘ri bo‘lar qalbdoshman desam.
Toshni qayga otsang yerga tushadi.
Shunga o‘xshash, do‘stim, kimga ozor bersang
Qalbim achishadi.

**KONDA**

Quyosh tafti,
Ko‘k dengizda yelkan,
Qahraton sofligi,
Bahorgi tomchi...—
Bularning astoydil qadriga yetgan
Yagona insondir, nazdimda, konchi.

Bunda na kunu tun va na fasllar,
Bosh uzra qora yer, zalvarli, qat-qat.
Undan ham og‘irroq zulmat, sukunat,
Faqat tirgovuchiar asta qisirlar...

Bir-birini yo‘qlab, nedir so‘zlaganday
Manglaylarga qo‘ngan karbit yulduzlar.
Shoir har bir so‘zdan o‘t izlaganday,
Konchi yer qa’rida toshdan o‘t izlar.

Men bunda bildimki, har yulduz—odam,
Yulduz zamyrlda bir inson shaxsi.
Bildimki, ko‘mirdan yaratilsang ham
Zulmatda nur bo‘lish naqadar yaxshi!

Bildimki, mehnatda, so'zda va kuyda
Olov—teranlikda. Undan hanı nari!
Bildimki, konchini kutarlar uyda
Ko'kdan kosmonavtni kutgan singari.

## U BAHORDA KYeTDI...

U bahorda ketdi, seni yig'latib,
Xush buyga to'lganda bog'lar, qo'ralar.
Umid tomchilari achchiq va latif,
Boshda olcha guli tinmay bo'ralar.

Uzoq ko'z o'ngingda turdi o'sha dam,
Yoz o'tdi shu damning -hislarin sinab.
Loqayd edi unga kunlar, oylar ham,
Kuz o'tdi yonidan yotsirab.

Qish keldi, qor bosdi yarim olamni,
Qor ostida qoldi bog'lar, qo'ralar.
Yelg'izlik tunlari sovuq, alamli,
Qor esa bo'ralar, hamon bo'ralar.

Shunda u ko'rindi ketgan yo'lida.
Mehr izlab qaydadir balki tilangan,
Tavbadir, umiddir balki dilida,
O'zi boshdan-oyoq qorga belangan.

Yodga kelmay qiynar unutilgan qo'shiq;
Ostanada turdi. Qor yuz-ko'zida.
Qor erigach, ko'rding: o'rnida—bo'shiiq
Jindak ko'lmak qoldi oyoq izida.

## AYa.IONIMIZ

Titrab yangrar edi ufqlar tongda,—
Go'zal kuylar edi ayajonimiz.
Bulutlar to'lg'anar edi osmonda,
Jajji yuraklarda — hayajonimiz.

Quyni qari-qartang mukka tinglagan,
Bunda ojiz edi har qanaqa so'z.
Urush mo'ralardi qo'lsiz yenglardan,
Yupun xirmonlardan — bebaraka kuz.

Ayam ko'kka qushday intilar edi,
Etagidan ushlab diydirardik biz.

Yashil ko'saklarda mo'ltillar edi
Chala qolgan kuydek bolaligimiz.

Bulutlar bezovta edi osmonda,
Jajji yuraklarda—hayajonimiz.
Dadamizni eslab shunda har tongda
Mungli kuylar edi ayajonimiz.

Kuy bo'lib uchmoqni qilardi orzu
Dadamni bir ko'rish qasdida.
Ammo qanotlarin yozolmasdi u,
Chunki biz bor edik qanot ostida.

**BOLALIK**

Ilk tong nuri kiprigimgga qo'nar,
Ko'kdan yuvib ketar qora uyquni.
Qaerdadir so'nggi yulduz so'nar,
Shabnamlarda qolar uchquni.

Sen olamni ilk bor ko'rayotgandek,
Tug'ilish chog'iga bo'lasan guvoh.
Hayot endigina kurtak otgandek,
U hali bir go'dak, sof va begunoh.

Lekin birpasdan so'ng bularning bari
Xuddi bolalikday qoladi ortda.
Bolalikda ko'rgan tushlar singari
Xotiralargina qolar hayotda.

Unga kirib kelar tutun va g'uluv,
Terdatar tashvishlar, terlatar quyosh.
Olam yana o'sha chalkash va ulug',
U yana qadimiy, unga million yosh...

Orzu olg'a undar, xotira—ortga,
Bular bir-biriga, albat, zid narsa.
Lekin, oh, qaniydi har tong hayotda
Chindan bolalikka bizni qaytarsa!

Hoy-hoy, keling,—deya,—o'sha kunlarim!—
Yaxshiyu yomonim birga to'plardim.
Mushtlashgan, do'stlashgan jo'ralarning barpn,
Tanish qushiarimni yo'qlardim.

Changli so'qmoqlarim tanib olar edim,
Chashmalar, oqshomlar, lolazorlarim,

Tanib olar edim gulingizning hidin,
Qirqqokil sinfdosh dilozorlarim.

Ko‘rardim yoshgina onajonimning
Yuzlari ajinsiz, dilbar chog‘ini.
G‘amli, hayajonli har bir onimning
Yangilab dildagi yog‘du, dog‘ini.

U bilan chiqardim—dalalar gilam,—
Yana uzoqlarga bir ko‘z tutardik.
Hamon jindakkina ilinj qo‘ri bilan
Dadamizni jangdan kutardik...

Bolalik... umrning sehrli dami;
Kim biladi deysiz bu holning sirin:
Achchiq-bo‘lsa hamki lablarda ta’mi,
Qalbda xotirasi shu qadar shirin!

## QIRDA

Oydin jimlik kumush jarangsimon
Yana boshoqlarni shu’laga chaydi.
Tushib qolgan dondek, men ham bir zamon
Shu ona tuproqda unib chiqsaydim.

Koinotda porlab ko‘rinadi
Somon yo‘l singari inson xayoli.
Inson o‘zi hamon yerda urinadi,
Vodiyda anqiydi arg‘uvon boli.

Inson kuzatadi moviy dengizni:
«Qaysi sun’iy yo‘ldosh, qaysi sayyora?»
Ammo qo‘shni kapadagi o‘roqchi qizning
Nozli kulgisidan qalbi chilpora.

Avf eting uni, porloq yulduzlar,
Inson Yerda xuddi daraxt singari:
Daraxtlar yuksakka intilgan sari
Chuqurroq ketadi yerga ildizlar.

## BYeZOVTALIK

Bola edim. Oyijonim yosh,
Zebigardonlari yarqirar edi.
Sizni yo‘qlaganda, asta egib bosh,
Mening ismim aytib chaqirar edi.

Bilmadim, ismimning yo‘q edi sehri,
Menda faxr etgulik nima bo‘lgandir,
Balki yuragingiz oila mehri,
Iliq hislar bilan to‘lgandir.

Har holda, u sizni yo‘qlagan choqda
Mening ismim aytib chaqirar edi.
Sizning ko‘zlaringiz esa uzoq-uzoqda
Chaqnagan yulduzday yaltirar edi.

Yoshim, eslolmayman, nechadaydikin,
Oyoq yalang chiqdim kuzatib navro‘z.
Umid yulduzingiz so‘nmadi, lekin
Siv so‘ndingiz, dada, bemavrud.

Okoplardan yana qalqidi dunyo,
Meros qilib oldi uni naslimiz.
Planetaning chakka tomiri go‘yo,
Hamon tepib turar notinch asrimiz.

Kecha birdan kimdir meni ilk marta
Ismimga ismingiz qo‘shib chaqirdi.
Yoshim endi sizdan bo‘lsa ham katta,
Butun vujudimda chaqmoq chaqildi.

Meni chulg‘ab oldi bezovta tuyg‘u:
Xo‘p, mag‘rur yurarman eslatib sizni,
Lekin ayni damda dilga tushar g‘uluv—
Otalar ismiga munosibmizmi?

**TUG‘ILISh**

Tong oldidan yomg‘ir sevalab o‘tdi.
Keyin ko‘k ochilib, yog‘di yulduzlar.
Yerdan hovur ko‘tarildi, xuddi
Qimirlagan kabi zimdan ildizlar.

Qimgadir muqaddas bir zum yaqinladi
Qorovul o‘chirdi so‘nggi fonarni.
Iyul quyoshining ilk yolqinlari
Yaproqlarga sachrab yonardi.

Yer yosh; soflik jimirlatar etni,
Zoriqqan g‘unchalar ochildi bog‘da.
Panjaradan oshib chiqib ketdi
Maysazorda yurgan yashil shabboda.

Eshikdan eshikka yugurib yelardi,
Suyunchi so‘rardi, suyunchi.
U go‘yo taqdirni oldan bilardi,
Go‘yo yo‘q dunyoning g‘ami, kuyunchi.

Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko‘ksida yulduzi, bir qo‘li mayib...
Ichkarida esa, oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.

* * *

Bilmadim, yo‘lingga kimlar bo‘ldi g‘ov,
Bezidi kulbamdan fayzu farishta.
Ko‘ngil mulkim mening alg‘ov-dalg‘ov,
Qayt, dunyomni qilgil sarishta.

Bari o‘lda-jo‘lda—ro‘zg‘or, his, xayol...
Sening qo‘llaringga hammasi mushtoq:
Quvonch gullarimga suv sep. sohibjamol,
Qaytib, ko‘zlarimning yulduzni yoq.

Tongdek balqi eshigimdan kirib,
So‘ngan o‘choqlarim yonsin mehringdan.
Bunda hamma narsa sening bilan tirik,
Bunda har mo‘‘jiza sening sehringdan.

Xayol zulmatiga soching chulg‘anar,
Qiynar ilk nigohing mangu lahzasi.
Devorda soyadek es-es to‘lg‘anar
Tungi bo‘salarning sirli lazzati.

Aytsang-chi, yo‘lingga kimlar bo‘ldi g‘ov,
Bezdi-ku kulbamdan fayzu farishta.
Ko‘ngil mulkim mening alg‘ov-dalg‘ov,
Qayt, yana dunyomni qilgil sarishta.

## NOMA’LUM SOLDAT

Jasorat maydoni—sahna emas, ha.
Bo‘lishi shart emas guvohiar.
Ba’zan jasoratga guvoh shunchaki
Nomsiz tepaliklar, tonglar, giyohiar

U tong kabi balqib tug‘iladi

Pinhona, har kimning qalbida.
Xalq balki bilmas, u sodir bo‘lar
Faqat vijdon, vijdon oldida!

Bugun gul ko‘tarib kelganlar—unga
Bobodir, singildir, onadir...
U tarix qa’rida qolsa-da o‘zi,
Bizni kelajakka chorlab yonadir!

* * *

Sezar ertalabdan noxush edi bog‘da,
Dunyo ko‘z o‘ngida begona, erish.
Xunuk bir tush ko‘rdi. Ruhi alag‘da.
Tushda o‘z onasini zo‘rlagan emish...

Darhol chorladi u kulli ulamo,
Munajjimlar, folbinlarini.
To ta’bir etilsin bu mudhish ro‘yo,
Istiqbolimi bu, oldinlarimi?

Ular jahongirni tang qoldirdilar,
Tush emas, bu omad sitorasi, deb.
Zaminga hokimlik ishorasi, deb,
Botin niyatlarini o‘t oldirdilar.

Ha, Zamin... Ona-Yer! Cheksiz olamda
Tiriklikni tuqqan yagona manzil.
Uni tahqirlayman degan har banda,
Har xudo—razil...

## IKKI GUL

Endi aytsam ayta qolay,
Ancha bo‘ldi bu gapga.
Bir yosh suluv qizcha bilan
O‘ltirardik egatda.

Lov-lov yonar, kamgap ekan,
Men so‘zini kutardim.
U iymanib yerga qarar,
Men savolga tutardim.

Xayol ketib qolar edi:
«Ko‘zlari muncha tiyrak...»
Ammo bugun men u haqda

Xabar yozishim kerak.

Shuning uchun ishga o‘tdim,
Tiyib bebosh o‘ylarni.
Javobiari chala-chulpa,
Ro‘mol uchin o‘ynardi.

«Ha, jo‘yakka yo‘l solamiz
Shabnam ko‘tarilganda...»
«Ha, shturval og‘ir, lekin
Qiyin emas bilganga».

Quyosh tapti yonog‘ida,
Manglayida — sepkili.
Nafasidan sezilganday
Sirli tonglar epkini.

Uzoqlarga tikiladi,
Uzoqlarda qorli tor.
Gap ololmay qiynalaman,
Qiz ham menga xayrixoh.

«Ha, charchayman... lekin, qarang,
Oq bulutlar qalqidi...»
U turganda izlaridan
Chaqmoq hidi anqidi.

Birga turdi paxtazorning
Tarovatli yellari.
Ko‘z o‘ngimda kombinezon
Siqib turgan bellari.

...Yozolmadim maqolani,
Chiqmasligin bilgandim.
Lekin o‘sha uchrashuvda
Bir nimani o‘rgandim.

Mehnat qilgan o‘zi bilar
Uning ichki ziyosin.
So‘zlab berish mushkul ekan
Mehnat poeziyasin.

Derlar: she’ru mehnat guli
Dil to‘rida bitibdi...
She’riyatning sirlarini
Kim ham bayon etibdi?

Uni bayon etib bo‘lmas,

Qancha kuch sarflamang.
Gul atrini hidlab biling,
Gul atrin ta’riflamang.

## DYeRAZA YoNIDA

*Silva Kaputikyandan*

Senga intizorman.
Xira darpardalar...
Tungi chorrahaday dunyoyim bo‘m-bo‘sh.
Jimlikni sehrlab ko‘char sharpalar,
Har qadam tovushidan qalbimda junbish.

Hamon umidvorman,
Qalbim malikasi!
Sog‘inch va alamdan tun ham zim-ziyo.
Yana uzoqlarda shoshqin qadam sasi,
Bu ham o‘tarmikin, to‘xtarmikin yo?..

Evoh,
Bu ham to‘xtamadi, o‘tdi.
Qalbga zardob bo‘lib tomdi o‘kinchi.
Qalb zirqirar,
Chunki uni xuddi
Toptab o‘tar edi har bir o‘tkinchi...

## KUZ

Kuzgi bulut kelib oqshom asnosi
Bog‘lar etagida ko‘zdan yo‘qoldi.
Silkitib ufqning o‘tli tasmasin,
Chinor taglarida ko‘lmak suv qoldi.

Chinor so‘ng bor sezdi tanida iliq,
Pildirab tushganda oxirgi yaproq.
Suvni chayqadiyu bir zumlik titroq
So‘ng yana jim bo‘ldi, osmonday tiniq

Ko‘lmakda shafaqning bir tomchisidek
Yonardi chinorning so‘nggi tuhfasi...
Bejizmas, shoirning ilhomchisi deb
Seni ataydilar, ey o‘ychan fasl!

## ShAMOL

Tunlari intizor kutasan xabar,
Eshik g‘irchillasa uyqung qochadi.
Bilmasmiding axir shu paytga qadar:
Ba’zida eshikni shamol ochadi...

Bilmasmiding, shamol—engil, daydi;
Unga muhabbat ham, taqdir ham arzon.
Bugun sochiaringni silab erkalaydi,
Ertaga bog‘larni etadi hazon.

## YaPROQ

Ochil buva yuzga qo‘ydi qadam.
Chinor chorlar uni, yolg‘iz umrdosh,
Faqat chinor uning dardiga hamdam.
Qolgan hamma narsa, hatto vodiy ham,
Undagi dengizlar, daryolar ham yosh.

Turdi, har kungiday, eidan ilgari.
Huvillab yotardi kimsasiz guzar.
Hazonga burkanmish sayhon chimlari.
Buva ko‘nglidagi o‘ylar singari
Ko‘kda pag‘a-pag‘a bulutlar suzar.

Kech kuz, sovuq. Chinor yalang‘och.
Shoxlari qizlarning siynasiday oq.
U tayyor, u kutar, u qishga muhtoj;
Faqat bir butoqda, go‘yo noiloj,
Qaltirab turibdi yagona yaproq.

Buva, titrab oq kipriklari,
Tixillb qoldi, go‘yo o‘z taqdiriga.
Yonida yo‘q yashil, tiriklari,
Uzilib uchgan minglab sheriklari,
Nega shafqat qilgan shamol biriga?

Izg‘irinlar uni yulib ketmabdi.
Bu yilgi bahorning so‘nggi merosi.
Ayozlarning unga kuchi yetmabdi,
Hamon ilinib turar. Demak bitmabdi
Tomirlardan kelgan hayot shirasi.

Buva ilk bor sezdi g‘alati to‘yg‘u.
Yolg‘izlik... Sariq barg sal shitirlardi.
Quzning och shamoli kezardi g‘uv-g‘uv.
Izg‘irinda cholga chinorning mangu

Yashil shovullashi eshitilardi...

## ChAShMA

U ketdi. Qishioqning bo‘z bolalari
Uni bir ko‘rmoqqa hamon tashnamiz.
Uzoq emas chog‘i kent oralari—
Bir kun chorlab keldi oydin chashmamiz.

Qaytib ketar ekan, chashma sathida
Yulduzlar bezovta tebranib qoldi...
Turmagan edi-ku bu qiz ahdida,
Nega chashmamizdan yana suv oldi?

## YuRAK

Qalb, chida! Sendagi bu yangi tuyg‘u
Utday xavfli, bemavrud va yosh...
Sir bo‘lib qolsin u qa’ringda mangu,
G‘amu shodliklarga bergansan bardosh.

Tasavvur qil, axir, hammaga hamma
So‘zlasa dardini, shikoyatini,
Aytib beraversa har bir qadamda
Ezgu muhabbatin hikoyasini.

Aytib beraversa barchaga barin—
Omadu judolik va yonganini,
Rashk, umid, alami va afsuslarin,
Aldagani, quvonganini.

Yurak sirlarini yoysa olamga,
G‘ussa ummonida g‘arq bo‘lar edik.
Baxt quvonchda suzgan barg bo‘lar edik,
Joy ham qolmas edi balki odamga...

Xayriyat, bu—har kimning o‘z ishi,
Har kim o‘z ichiga yutib yuradi.
Ishqilib, mard bo‘lsin bu ishda kishi,
Daryoday keng bo‘lsin inson yuragi!

## ERKIN

Sovuq edi, oq quvoqlar shumshuk;
Qushlar bo‘g‘otlarga kirib berkingan.

Faqat bitta hurpaygan chumchuq
Nimadir kutardi bizning Erkimdan.

Nimasi bilandir unga o‘xshagan
Erkin ham qo‘l cho‘zdi, kaftida ushoq.
Bexos ehtiyotlik qochdi qushchadan,
Eski oshnasini topganday shu choq,

Shoxdan shoxga toshday otildi,
To‘kib quvoqlarning kumush ninasin.
Sovuq yumshab, izg‘irin ham tindi,
Deganday: orada noz hurkimasin.

— Men bulbul emasman, yoki musicha,
Maylimi? — deganday chumchuq o‘zicha,
Churqillab, goh qarab uning aftiga,
Uchib kelib, qo‘ndi kaftiga.

— Dadil bo‘l... — deb Erkin, baland tutdi,
Erish qitiq sezdi barmoqlarida,
Saxovat quyoshi yonardi xuddi
Sovuqdan qizargan yonoqlarida.

Har bir ishchan, sersavlat kishi,
Shu yerda qadamin sekinlatardi.
To‘xtab xotin-xalaj, unutar ishin,
Bobolar soqolin selkillatardi.

To‘xtab qolardilar. Chumchuq emas, go‘yo
Mo‘‘jiza topganday bola kaftidan,
Ko‘zlarida quvonch bir dunyo
Jindak ezgulikning oddiy taftidan.

**QUYoSh**

Oftob chiqdi olamga,
Yana yoniq, yana yosh.
Shunday saxiy, shunday saxiy
Har tomchida—bir quyosh!

Har qorachig‘ tubida u
Quvonch bo‘lib yonadi.
Quyosh mening bog‘larimda
Sharbat bo‘lib tomadi.

Charaqlaydi oynalarda,
Hamma unga intizor.

Hali uning ishi ko‘pdir,
Hali kechga ancha bor.

Charchaydi u, chanqaydi,
Uni yo‘lda kutaman.
Qirov qo‘ngan gulbargm
Kaftlarimda tutaman.

Olov yollarini silkib
Toliqqan otday yuvosh,
Issiqma kaftlarimdan
Shabnam ichadi quyosh!

**MANGULIK**

O‘zim dengizga bag‘ishlab, daryo,
Jilg‘alar o‘ladi.
Uzoq-uzoq yangrab zamonlar aro
Qo‘shiqlar so‘ladi.

Yorug‘ yomb,
Shon-shuhratga qomb,
Yulduz o‘chadi—
Yo‘qlik dunyosiga ko‘chadi.

Goh havas qilaman...
Lekin aslida:
Men u ham bo‘lmasam,
Bu ham bo‘lmasam.
Tabiatday bo‘lsam:
so‘lsam-da faslida,
Sira o‘lmasam!

* * *

Bilaman: yillarnmg oqimi
Qonimm sovutar qalbimda.
Lekm yillarimnmg asill
Bari bir—oldmda.

* * *

Hujayramnmg har bir bo‘lagida
Ajdodlardan meros qomm bor.
Sahrodagi karvon yo‘llarida

Yozilmagan ezgu qonun bor:

Olislardan kelgan tashna musofir
Nogoh bir manzilda quduq topadi.
To‘yib ichgandan so‘ng, geolog, shofyor,
Irg‘ay, yovshan bilan ustin yopadi.

Toki qum bosmasin quyunlar kelsa,
To yamlab ketmasin quyosh yolqini.
Undan keyin kelgan notanish kimsa
Topsin qatralarning jonbaxsh salqinin.

Men bilishim kerak, bilishlm kerak,
Bir savol qalbimga larza soladi:
Ajdodlardan meros qomimdan bo‘lak,
Mendan izdoshlarga nima qoladi?